

HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJALARIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHDA INVESTITSIYA RESURLARINI HUDUDLAR KESIMIDA OQILONA TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich

“Alfraganus University” rektori
PhD, dotsent

Annotatsiya

Mazkur tezisda hududiy iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi tafovutlarni kamaytirishda investitsiya resurslarini hududlar kesimida oqilona taqsimlash mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotda hududiy investitsiya siyosatining nazariy asoslari, konvergensiya yondashuvi va investitsiya oqimlarining hududiy taqsimlanish xususiyatlari o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi hamda xalqaro moliya institutlari ma'lumotlari asosida investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari, hududiy tarkibi va iqtisodiy samaradorligi baholandi. Tahlillar natijasida markazlashmagan investitsiyalar ulushining oshgani, hududiy sanoat va infratuzilma loyihalarining kengaygani hamda investitsion faollikning kuchaygani aniqlandi. Tadqiqot yakunida hududiy investitsiya jozibadorligini oshirish, investitsiya resurslarini samarali yo'naltirish va hududlararo iqtisodiy muvozanatni mustahkamlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiyot, investitsiya resurslari, investitsiya siyosati, iqtisodiy konvergensiya, hududiy rivojlanish, investitsiya jozibadorligi, infratuzilma, iqtisodiy o'sish, kapital qo'yilmalar, investitsion mexanizm.

Аннотация

В данном тезисе были проанализированы механизмы рационального распределения инвестиционных ресурсов по регионам в целях сокращения различий уровней регионального экономического развития. В исследовании были рассмотрены теоретические основы региональной инвестиционной политики, подходы экономической конвергенции и особенности территориального распределения инвестиционных потоков. На основе данных Агентства статистики Республики Узбекистан и международных финансовых институтов была оценена структура источников финансирования инвестиций, их региональное распределение и экономическая эффективность. Результаты анализа показали рост доли децентрализованных инвестиций, расширение региональных инфраструктурных и промышленных проектов, а также повышение инвестиционной активности. По итогам исследования были разработаны практические рекомендации по повышению инвестиционной привлекательности регионов и укреплению межрегионального экономического баланса.

Ключевые слова: региональная экономика, инвестиционные ресурсы, инвестиционная политика, экономическая конвергенция, региональное

развитие, инвестиционная привлекательность, инфраструктура, экономический рост, капитальные вложения, инвестиционный механизм.

Abstract

This thesis analyzed the mechanisms for the rational allocation of investment resources across regions to reduce disparities in regional economic development levels. The study examined the theoretical foundations of regional investment policy, convergence approaches, and the characteristics of territorial investment distribution. Based on data from the Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan and international financial institutions, the structure of investment financing sources, regional allocation, and economic efficiency were evaluated. The analysis revealed an increase in the share of decentralized investments, expansion of regional industrial and infrastructure projects, and growth in investment activity. The research developed practical recommendations aimed at improving regional investment attractiveness, ensuring efficient allocation of investment resources, and strengthening interregional economic balance.

Keywords: regional economy, investment resources, investment policy, economic convergence, regional development, investment attractiveness, infrastructure, economic growth, capital investment, investment mechanism.

KIRISH

Iqtisodiy o'sishning hududiy o'lchovi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida har bir milliy iqtisodiyotda alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi sharoitida hududlararo iqtisodiy farqlanish darajasini izchil pasaytirish "O'zbekiston-2030" strategiyasining besh ustuvor yo'nalishi doirasida belgilangan asosiy vazifalardan biriga aylangan [1]. Strategiyada belgilangan asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha yetti foiz atrofida o'sishini ta'minlash maqsadi mahalliy resurslar va xalqaro moliyaviy oqimlarning hududlar bo'yicha samarali taqsimlanishini taqozo etadi.

Investitsiya resurslarini taqsimlash mexanizmlari neoklassik o'sish nazariyasi nuqtai nazaridan beta-konvergensiya jarayonini jadallashtiruvchi asosiy vosita hisoblanadi [2]. Iqtisodiy salohiyati nisbatan past hududlarga yo'naltiriladigan kapital qo'yilmalarning marjinal samaradorligi yuqori bo'lib, ushbu xususiyat uzoq muddatli istiqbolda hududlararo daromad farqini qisqartirishga xizmat qiladi. Empirik tadqiqotlar ushbu jarayonning o'rtacha tezligi yiliga ikki foiz atrofida ekanligini tasdiqladi [2].

O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tuzilishida 2017-yildan boshlangan islohotlar bosqichidan so'ng investitsiya oqimlarining tarkibi sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining roli ortib, davlat kafolati ostidagi kreditlar ko'p tarmoqli infratuzilma loyihalariga yo'naltirildi [3]. Maqolada hududiy iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi tafovutlarni qisqartirish maqsadida investitsiya resurslarini taqsimlashning amaldagi mexanizmlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan baholanadi va takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiyotning klassik nazariy asoslari Solou-Svon o'sish modeli va undan kelib chiquvchi konvergensiya gipotezasiga borib taqaladi. Barro va Sala-i-Martin tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlari, yapon prefekturalari hamda Yevropa hududlari bo'yicha o'tkazilgan empirik tahlillar mutlaq beta-konvergensiya hodisasining mavjudligini tasdiqladi [2]. Mazkur yondashuvga ko'ra, jon boshiga yalpi hududiy mahsulot darajasi past bo'lgan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'ati nisbatan yuqori bo'lib, kapitalning qisqaruvchi samaradorligi qonuni asosida hududlararo tafovutlar uzoq muddatli istiqbolida kamayib boradi.

Yangi iqtisodiy geografiya yo'nalishi tarafdorlari hududiy investitsiya samaradorligini aglomeratsiya jarayonlari bilan bog'laydi. Yirik shaharlar atrofida shakllangan iqtisodiy klasterlar yuqori unumdorlik beradi, biroq ayni shu jarayon hududiy qutblanishni keltirib chiqarish ehtimolini oshiradi. Jahon banki Mamlakat iqtisodiy memorandumida 2010-2022-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyoti yiliga o'rtacha 4,2 foizga jon boshiga o'sganligi qayd etildi va kapital qo'yilmalarning rivojlanishda yetakchi rol o'ynaganligi alohida ta'kidlandi [4].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tayyorlangan barqaror investitsiya siyosati yo'l xaritasida 2019-yilda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun investorlar uchun tartiblarni soddalashtirgani va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining tashkil etilishi bilan institutsional muhitni mustahkamlagani e'tirof etildi [5]. Hududiy ishlab chiqarish zanjirlarining rivojlantirilishi xorijiy investitsiyalarning mahalliy tarmoqlar bilan bog'liqligini kuchaytirish omili sifatida ko'rsatildi [5].

Mahalliy iqtisodchi-tadqiqotchilar O'zbekistondagi viloyatlar bo'yicha investitsiya dinamikasini batafsil o'rgandilar. Qashqadaryo viloyati misolida 2010-2024-yillar oralig'ida investitsiya hajmi va hududiy farqlanish o'rtasidagi bog'liqlikni baholagan elektron nashrda hududiy investitsiya jozibadorligini oshirishning iqtisodiy salohiyatga ta'siri keng yoritildi [6]. Hududiy rivojlanish strategiyalarining barqaror rivojlanish maqsadlari bilan integratsiyalashuvi alohida tadqiqot mavzusi bo'lib, sanoat va energetika ustuvor hisoblangan Navoiy, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari hamda qishloq xo'jaligi va infratuzilma muhim hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari o'rtasidagi yo'nalishli farq aniqlandi [7].

Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi natijalari mintaqaviy kambag'allikni qisqartirishda hududiy ustuvorlikka asoslangan investitsiya yondashuvining samaradorligini empirik jihatdan tasdiqladi. Andijon, Farg'ona, Namangan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi 306 qishloqda jamoaviy qarorga asoslangan kichik loyihalar amalga oshirilib, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda kommunal infratuzilma sifati ko'tarildi [8].

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosi sifatida iqtisodiy nazariyaning konvergensiya yondashuvi tanlandi. Empirik baholash uchun statistik agentliklar va xalqaro moliya institutlarining ochiq ma'lumotlar bazalaridagi ko'rsatkichlardan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar haqidagi rasmiy hisobotlar tahlilning birlamchi manbai vazifasini bajardi [3]. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil yarim yilligi bo'yicha davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisoboti fiskal mexanizmlarning mintaqaviy o'lchovini aniqlashda qo'llanildi [9].

Tadqiqotda quyidagi uslublar qo'llanildi: tarkibiy tahlil orqali investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tarkibi aniqlandi; qiyosiy tahlil orqali yillik dinamika baholandi; mantiqiy umumlashtirish orqali institutsional mexanizmlarning takomillashtirilishi yo'nalishlari shakllantirildi. Hujjatli-huquqiy tahlil "O'zbekiston-2030" strategiyasi va 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlovchi normativ-huquqiy hujjatlarning mintaqaviy taqsimlash mexanizmlariga oid me'yorlarini o'rganishni qamrab oldi [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 229,3 trln so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 36,6 foizga o'sdi [9]. Markazlashgan investitsiyalar 24,5 trln so'm darajasida qolib, ularning umumiy hajmdagi ulushi 10,5 foizga teng bo'ldi. Markazlashmagan manbalardan moliyalashtirilgan investitsiyalar 204,8 trln so'mga yetib, jami hajmning 89,5 foizini qoplagi [9]. Bunday tarkibiy o'zgarish O'zbekistonning bozor mexanizmlariga asoslangan iqtisodiy modelga izchil o'tib borayotganini ko'rsatdi.

Manbalar tarkibida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar yuqori ulush bilan yetakchilik qildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari uch barobar, hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1,7 barobar oshib, strategik infratuzilma loyihalarining moliyaviy bazasi mustahkamlandi [9]. Aholi mablag'larining ulushi turar joy qurilishi va kichik biznes loyihalari orqali jami hajmning to'qqiz foizdan ortig'iga yetdi.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2024-yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari kesimida tarkibi¹

Moliyalashtirish manbai	Hajmi, trln so'm	Ulushi, foizda
Markazlashgan manbalar	24,5	10,5
Markazlashmagan manbalar	204,8	89,5
Jami	229,3	100,0

Hududiy kesimda Toshkent viloyati 2024-yilning birinchi yarmida 31,9 trln so'mlik asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirib, sanoat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va energetika obyektlarini qurishda yetakchi mavqega ega bo'ldi [3]. Jahon banki Mamlakat iqtisodiy memorandumida ko'rsatildiki, Toshkent va Qarshi singari yuqori ishlab chiqarish unumdorligiga ega hududlarda elektr

¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil I yarim yilligi yakunlari bo'yicha davlat byudjeti ijrosi hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan

energetikasi infratuzilmasini ustuvor moliyalashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng oqilona yo'nalishlaridan biri sanaladi [4].

Tarmoq tarkibida tog'-kon sanoati 2023-yil yakunlari bo'yicha 36,3 trln so'm investitsiya bilan jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 10,3 foizini qamrab oldi [3]. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2024-yilning birinchi yarmida 135,8 trln so'mga yetib, hududiy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish jarayoni jadallashganini ko'rsatdi [3]. Mavjud obyektlarni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan investitsiyalar mintaqaviy infratuzilma yangilanishida muhim o'rin tutdi.

Olingan natijalar quyidagi qonuniyatlarni aniqlash imkonini berdi. Birinchidan, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari ulushining 89,5 foizga yetishi xususiy investitsion faollikning oshganini va davlatning bevosita aralashuv darajasi qisqarganini ko'rsatdi. Ikkinchidan, hududiy taqsimotda Toshkent shahri va Toshkent viloyati klasteri yetakchilik qildi, ammo Qashqadaryo, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida sanoat hamda energetika loyihalarining jadal joylashtirilishi hududlararo muvozanatlanish jarayonining boshlanganini bildirdi [6]. Uchinchidan, davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning 1,7 barobar oshishi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan yo'lga qo'yilgan strategik loyiha boshqaruvi tizimining samarali ishlayotganini tasdiqladi [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlil hududiy iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi tafovutlarni qisqartirish maqsadida investitsiya resurslarini taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirishning bir qator yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qildi.

Birinchidan, har bir viloyat va shahar uchun investitsiya jozibadorligi indeksini ishlab chiqish maqsadga muvofiq topildi. Indeks tarkibida ishlab chiqarish unumdorligi, mehnat resurslarining ta'lim darajasi, infratuzilma rivojlanish koeffitsiyenti hamda biznes muhitining sifati ko'rsatkichlari birlashtirilishi mumkin. Indeks asosida xorijiy investorlarga taqdim etiladigan loyiha takliflari shakllantiriladi va hududiy reyting davriy ravishda yangilanib boriladi.

Ikkinchidan, hududiy investitsion ustuvorliklar reytingini har yili yangilab borish va uni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy portalida ochiq joylashtirish davlat-xususiy sheriklik shaklidagi loyihalarni jalb qilishni jadallashtiradi [10]. Reyting orqali markazlashgan investitsiyalarning 1,7 barobarga oshgan kreditlar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar tarkibida ustuvor mintaqalarning ulushi tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish loyihasining muvaffaqiyatli tajribasi asosida jamoa ishtirokiga asoslangan kichik loyihalarni Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida kengaytirish samarali natija beradi [8]. Bunday yondashuv mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan investitsiya qarorlarini qabul qilish madaniyatini mustahkamlaydi va ijtimoiy ta'sirni kuchaytiradi.

To'rtinchidan, neoklassik konvergensiya nazariyasi tamoyillariga muvofiq, jon boshiga investitsiya hajmi nisbatan past bo'lgan hududlarga davlat kafolatli kreditlar

dasturini ustuvor yo'naltirish hududlararo iqtisodiy farqning qisqarish sur'atini tezlashtiradi [2]. Beshinchidan, "O'zbekiston-2030" strategiyasining hududlar kesimida ijro etilishini har chorakda baholash tartibini chuqurlashtirish va viloyat hokimliklari tomonidan kvartal hisobotlarining sifat ko'rsatkichlari tahlilini takomillashtirish zarur [1]. Bayon etilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi hududlararo iqtisodiy muvozanatga erishish, viloyatlardagi yuqori daromadli ish o'rinlarini ko'paytirish va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning huquqiy hamda institutsional asoslarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. Sala-i-Martin X. Regional cohesion: evidence and theories of regional growth and convergence. European Economic Review, 1996, Vol. 40, Issue 6, pp. 1325-1352. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0014292195000291>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qomitasi. Investitsiyalar bo'yicha rasmiy statistika. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>
4. World Bank. Uzbekistan - Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. Washington, DC, 2025. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/cem-2025>
5. OECD. Trends and Impacts of FDI in Uzbekistan: Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. OECD Publishing, Paris. https://www.oecd.org/en/publications/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_20865f29-en.html
6. Valiev O. Investment dynamics and regional disparities: evidence from Kashkadarya region of Uzbekistan (2010-2024). ResearchGate, 2025. <https://www.researchgate.net/publication/400933720>
7. O'zbekiston hududiy rivojlanish strategiyalarida barqaror rivojlanish maqsadlarining (SDG) integratsiyasi. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali, 2025. <https://www.researchgate.net/publication/396308409>
8. World Bank. Women, Children Benefit When Uzbek Villages Are Empowered to Invest. Feature Story, 18 July 2024. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2024/07/18/women-children-benefit-when-uzbek-villages-are-empowered-to-invest>
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2024-yil I yarim yillik ijrosi to'g'risidagi hisobot. https://api.mf.uz/media/menu_attachments/1_yarim_yillik.pdf
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabr PQ-459-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>